



UDK:811.1

Zarifjon KUVONOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: z.kuvonov@cspi.uz

CHDPU dotsenti, f.f.f.d. (PhD) Z. Sanakulov taqrizi asosida

TRANSLATION OF GERMAN COLOR COMPONENT PHRASEOLOGISMS INTO UZBEK AND THEIR SEMANTIC ANALYSIS

Abstract

This article describes phraseological units, including German color-component phraseological units and how they are translated into Uzbek. In addition, the article provides a semantic analysis of color-component phraseology in German and Uzbek.

Key words: Phraseological unit, translation, color, black, white, red.

ПЕРЕВОД НЕМЕЦКИХ ЦВЕТОКОМПОНЕНТНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК И ИХ СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье рассказывается о фразеологизмах, в том числе о немецких цветокомпонентных фразеологизмах и о том, как они переводятся на узбекский язык. Кроме того, в статье проводится семантический анализ цветокомпонентной фразеологии в немецком и узбекском языках.

Ключевые слова: Фразеологизм, перевод, цвет, черный, белый, красный

NEMIS TILIDAGI RANG KOMPONENTLI FRAZEOLIGIZMLARNING O‘ZBEK TILIGA BERILISHI VA ULARNING SEMANTIK TADQIQI

Annotatsiya

Ushbu maqolada frazeologizmlar jumladan, nemis tilidagi rang komponentli frazeologizmlar va ularning o‘zbek tiliga berilish usullari haqida so‘z boradi. Bundan tashqari maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi rang komponentli frazeologizmlar semantik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Frazeologizm, tarjima, rang, qora, oq, qizil

Kirish. Bizning kundalik hayotdagi nutqimiz ta’sirchanligi, emotsionalligi albatta nutqimizda ishlatilayotgan so‘zlarga bog‘liq. Agar biz nutqimizda iboralar, hikmatli so‘zlar, maqollardan foydalansak natijaga erishamiz, ya’ni nutqimizning ta’sirchanligi oshadi. Yuqorida sanab o‘tilganlar tilshunoslikda frazeologizmlar deb nomlanadi. Xo’sh, frazeologizm o‘zi nima va unga tilshunos olimlar qanday ta’rif berishgan. Nemis tilshunosi Kristina Palm o‘zining “Phraseologie: Eine Einführung” asarida frazeologizmi quyidagicha xarakterlaydi. “Frazeologizm leksik tizimning kamida ikki birligidan, leksema (so‘z) dan tashkil topgan minimal so‘zlar guruhidir [10]. Yana bir tilshunos Karin Krohn o‘z asarida frazeologizmi shunday ta’riflagan. “Frazeologizm - ta’riflash mezoni sifatida ko‘p qismlilik ustuvor bo‘ladi, ya’ni frazeologizm kamida biri avtosemantik bo‘lgan ikkita so‘zdan tashkil topadi. Til jamiyatida lisoniy birlik sifatida ishlatiladi.” [8] Xuddi shunga o‘xshagan ta’rifni Fleischerning “Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache” asarida ham uchratish mumkin. [4] „Frazeologizm - kamida bitta avtosemantik so‘zni o‘z ichiga olgan so‘z birikmasidir.“ Frazeologizmlarda ikkita muhim xususiyat mavjud: Ko‘p qismlilik, (ya’ni kamida ikkita so‘zdan tashkil topgan bo‘lishi kerak) Turg‘unlik (ya’ni tuzilishi o‘zgarmasdan nutqda qo‘llanilishi kerak). Yuqoridagi xususiyatlarga ega bo‘lgan har qanday birikmani Harald Burger frazeologizm deb nomlagan [1]. Bundan tashqari akademik A. Hojiyev frazeologizmi quyidagicha ta’riflaydi. “Tuzilishiga so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay,

nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik. Turg‘un birikmalarning obrazli, ko‘chma ma’noga ega turi” [5]

Asosiy qism. Avvalambor, olmon va o‘zbek tillari tarixan turli tillar oilasiga mansubdir. Bu esa ikki xalqning turli madaniyat va urf-odatlariga ega ekanligiga borib taqaladi. Shu jumladan frazeologizmlari ham turlicha. Bizga ma’lumki, frazeologik birliklar ko‘pincha o‘z va ko‘chma ma’nolarda tushuniladi. Bu borada tarjima xususida ba’zi bir fikrlarga to‘xtalsak. Tarjima o‘zi qanday jarayon? Tarjima tarjimonning manba tilidan, ya’ni matnning manba tilidan maqsadli tilga tarjima qilish jarayoni bo‘lib, u shakl va mazmun jihatidan asl matnga mos keladi, manba tili esa boshqa tilga tarjima qilingan tildir. Bu jarayon Wilss tomonidan tarjima muammolari va usullariga bag‘ishlangan asarida yanada aniqroq ko‘rsatilgan, ya’ni tarjima jarayoni ikki asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi. Birinchisi, tushunish bosqichi bo‘lib, unda tarjimon manba matnni tahlil qiladi, matnning ma’nosini va unda nimani anglatishini tushunishga harakat qiladi. Tushunish bosqichidan keyin rekonstruksiya bosqichi boshlanadi, bunda tarjimon manba matn elementlarini asl matnga ham mazmun, ham uslub jihatidan sodiqlik bilan ko‘rsatuvchi tilda takrorlaydi. Shuning uchun tarjimaning maqsadi maqsad tilda yangi matn yaratish emas, balki asl matnni asl matnga o‘xshab ko‘rinadigan tarzda, lekin manba matn elementlarini qoldirmasdan yoki o‘zgartirmasdan ularni butunlay maqsadli tilga o‘tkazishdir [12]. Kollerning fikricha, tarjima jarayonida ikkita tarjima usuli mavjud. Moslashuvchan tarjima usuli manba matnidagi madaniyatga xos elementlarni maqsadli tilning madaniyatiga xos elementlar bilan almashtirishni anglatadi. O‘tkazma tarjima

usuli madaniyatga xos elementlarni manba matndan maqsadli matnga o'tkazishni anglatadi [7]. Kollarning fikricha, tarjima shunchaki til bilan bog'liq ish emas, balki ko'proq madaniyat bilan bog'liq ishdir. Boshqa madaniyatda tarjima qilishda duch keladigan qiyinchiliklar nafaqat til bilan bog'liq, balki tarjimoni tushunishga to'sqinlik qiladigan madaniy farqlar bilan ham bog'liq. Xo'sh, tarjimon manba matni maqsadli tilga shunday tarjima qilishi kerakki, u o'quvchi kutgan talablarga javob beradimi? Ideal holat shuki, tarjima asl matn bilan bir xil ta'sirga ega bo'ladi [7]. Nemis tilidagi frazeologizmlarni o'zbek tiliga berilishida albatta dastavval o'zbek tilidan unga mos muqobil variant tanlanadi. Shunda frazeologizmlar ikkala tilda bir xil ta'sirga ega bo'ladi. Quyida biz o'zbek tarjimashunos olimlarining tarjima, frazeologizm tarjimasi xususidagi fikrlariga to'xtalamiz. Z.M.Ma'rufov [9] „Tarjima“ so'ziga „bir tildan ikkinchi tilga ag'darilgan tekst“ deb ta'rif beradi. Tarjima har sohaga tegishli bo'ladi. Uning adabiyotga va tilga oid xususiyatlari mavjud. Ularning har ikkalasi bir-biridan farq qiladi. Biz uning tilga (lingvistikaga) tegishli tarafdin tahlilini olamiz. Bu esa bir tildan ikkinchi tilga o'g'irish transformatsiya qilish deya aytish mumkin. Bu jarayon asli tarjimaning vazifasi hisoblanadi. Tarjima qilingan matn uni qanday tarjima qilingani va mohiyati ham muhimdir. Tarjima matni, tarjima mohiyatini, mazmunini aniqlashda uning asl matnga nisbatan tarjima matni qanday tarjima bo'lganligi uning adekvat tarzida tarjima yoki ekvivalent tanlash orqali bo'lganligi tarjimaga bog'liqdir. „Bilamizki, tarjima jarayoni murakkab jarayon hisoblanadi va tarjima qilishni o'zining usullari mavjud. Asl tarjima matnini istagan so'z qo'llash orqali tarjima qilib bo'lmaydi. Tarjima qilayotganda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

-shakl va mazmuniga

-til birliklarining to'g'ri qo'llanilganligiga

-uning ma'nosiga”

Turli tillardagi so'zlarda shakl jihatdan o'xshash bo'ladi. Masalan, „die Sprache“, „til“ bu ularning ham shaklan farqini, mazmun tomondan bir xilligini anglatadi. Bunday so'zlar esa, tarjimada bir-biriga ekvivalent bo'la oladi.

Tarjima jarayoni turli sohaga oid bo'ladi deya ta'riflagan edik. Aynan frazeologiyada frazeologizmlarning tarjimasi ham murakkab jarayondir. Frazeologizmlar haqida so'z yuritilganda, ularni xarakterlovchi maqol, matal, idiomalarni ham o'z tarjima jarayoni mavjud. Aynan shuning uchun ham frazeologizmlarni tarjimasi bir muncha qiyinroq. Tarjima jarayoni turli usullar orqali tarjima qilinadi.

“Masalan frazeologizmlarni xarakterlovchi maqollarni tarjima jarayonini aytsak, ularni nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda ularni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi, chunki o'zbek tilidagi maqollar she'riy tarzda tarjima qilinadi. Shuning uchun ham bir qancha muammo uchraydi. Bunda grammatik jihatdan va ikki xalqning urf-odatlari bilan bog'liq muammolar ham uchraydi. Maqol va matal tarjimasi uch tamoyilga asoslanadi.

-asl nusxada maqol yoki matal tilidan teng qiymatli ekvivalent tanlanadi.

-asar o'giraloqotgan tildan muqobil variant topib qo'yiladi.

-aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish” [6]

Frazeologizmlarni xarakterlovchi idiomalarning tarjimasi ham maqol va matallar singaridir. Bu tushunchalarga kengroq ta'rif beradigan bo'lsak, frazeologizmlarni tarjima qilishning yana bir nechta usullar mavjud. Ularni tarjima qilishda mos keladigan va mos kelmaydigan holatlari mavjud. Frazeologizmlarni tarjima qilish jarayonida muvofiq keladigan variant har ikkala tilda mavjud bo'lgan iboralardir va ma'nosini to'g'ridan-to'g'ri tushunish mumkin. Ikkinchi usuli mos kelmaslik holati bo'lishi mumkin. Bu holatda frazeologizmlarni ichki komponentlari ma'nosi to'g'ridan-to'g'ridan tarjima qilib

bo'lmaydi. Ularni ma'nosi umumiy jihatdan olib tarjima qilamiz.” [6] Shunga ko'ra, frazeologik birliklar turli tillarda turli ma'no anglatishi mumkin, hamda ularni tarjima qilganda ikki til o'rtasida har xil ma'noda keladi. Quyida biz nemis frazeologizmlari va ularning o'zbek tiliga (Umarxo'jayev M.I., Nazarov K.N. Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at. Toshkent, O'qituvchi, 1994. lug'ati asosida) berilishini tahlil qilib chiqamiz. Ba'zan nemis va o'zbek frazeologizmlari forma jihatdan bir-biriga umuman mos kelmasligi mumkin. Masalan: “goldene Berge versprechen” (nemis tilida) „qop-qop va'da bermoq“ (o'zbek tilida) frazeologik birligi o'zbek tiliga tarjima qilinganda o'z muqobil ekvivalenti, yani turg'un birligi orqali tarjima qilinadi. Bundan tashqari nemis tilidagi “blaues Blut” frazeologizmi o'zbek tiliga “kelib chiqishiga ko'ra oliy zot ya'ni oq suyak” [11: 15] ekvivalentiga to'g'ri keladi. Bu frazeologizm tarkibida ko'k rang va qon so'zlari mavjud. Lekin o'zbek tilidagi muqobil variantida ikkala so'z ham ma'no jihatdan bir-biriga mos kelmaydi. Yana bir boshqa misol “ein blauer Brief” frazeologizmining ikkita ma'nosi mavjud. 1) “ishdan bo'shatilganlik xati” 2) “shikoyat xati (maktab ma'muriyati bola ustidan yozib beriladigan xat, arznoma).” [11: 15] Ushbu frazeologizm o'zbek tiliga frazeologizm sifatida berilmagan. Rang komponenti hisoblangan ko'k rang tarjimada uchramaydi. Shu rang komponenti bilan bog'liq, o'zbek tiliga berilishi ham o'xshash bo'lgan yana bir “blau machen” frazeologizmini olaylik. O'zbek tiliga “sababsiz ishga chiqmaslik” deb tarjima qilinmoqda. “Ein grüner Junge” o'zbek tiliga “ona suti og'zidan ketmagan yigitcha” [11] deb tarjima qilingan. O'zbek tiliga frazeologizm sifatida tarjima qilingan lekin rang komponenti bo'lgan yashil ekvivalentda uchramaydi. Frazeologizmlarni tarjima qilishda ana shu kabi qiyinchiliklarga uchrash mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganidek, nutqning ta'sirchanligi va emotsionalligini oshirishga xizmat qiladigan so'zlar, shuningdek, frazeologik birliklar o'z ma'nolari bilan inson ruhiy dunyosiga ta'sir etish xususiyatiga ega. Ularning asosiy ahamiyati nutqni ifodalashda unga hissiy rang berish va uning ma'nosini mustahkamlashdan iboratdir. Tabiatda mavjud bo'lgan ranglar jilosi har qanday insonning e'tiborini tortadi. Ranglar va ularning ramziy ma'no-mohiyatidan bahs yuritish oson emas, albatta. Rang komponentli frazeologik birliklar ham o'z navbatida, inson ruhiyati va his-tuyg'ularini ifodalashda alohida ahamiyatga ega. Frazeologik birliklarning emotsionalligi insonning turli xil his-tuyg'ulari, hamda shaxs-predmetlarga nisbatan subyektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog'liqdir. Rang komponentli frazeologizmlar shodlik, xursandchilik, g'azab, azoblanish, tushkunlik, qo'rquv va shu kabi emotsional xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega. Albatta his-tuyg'ular ikki qutbli – ijobiy yoki salbiy, ya'ni yoqimli va yoqimsiz bo'ladi. [3: 130] Shunga nemischa rang komponentli frazeologizmlarni ijobiy va salbiy emotsiyali iboralar turkumiga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

Qora – nemis tilida “schwarz” frazeologizmlar tarkibida eng ko'p qo'llaniladigan ranglardan biri bo'lib, u asosan yomonlik, g'azab, qayg'u noqonuniy ishlar kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

bei jdm. schwarz angeschrieben sein [2] – qora nom bilan yozib qo'yilmoq

sich schwarz ärgern – g'azab o'tida yonmoq

Schwarz tragen – aza kiyimida bo'lmoq

Der schwarze Markt – qora bozor

schwarz auf weiss – qoraga oq bilan yozib qo'yilganday

O'zbek tilida bu rang negativ xususiyatga ega bo'lgan hissiyotni ifodalaydi. U yovuzlik, yomonlik, zulmat, qiyinchiligi kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'-qorong'u ya'ni qora kunlar deganda insonning qiyinchiliklari, g'am tashvishlari nazarda tutilmoqda.

Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi – ushbu maqolda ham agar kimki, yomon odam bilan yursa u odam ham yomon bo'lib qoladi kabi ma'no mavjud.

Ichi qora – hasadgo'y bironi ko'rolmaydigan insonlar uchun ishlatiladi.

Bundan tashqari xalqimizning ko'r ko'rni qorong'uda topibdi, qora bozor, qora ishchi, qora xalq, oq kunda oqararsan, qora kunda qorayarsan va shular kabi frazeologizmlari mavjud. Lekin bugungi kunda yoshlar o'rtasida qora rangda kiyinish urf tusiga kirmoqda. Qora rangdagi kiyimlar yoshlar nazdida ulug'vorlikni va buyuklikni ifodalamoqda. Bundan tashqari muqaddas Ka'ba ham qora rangdadir va go'zallikda tengi yo'qdir.

Oq – nemis tilida „weiß“ rangi ham nemis tili frazeologizmlarida ko'p uchraydi. U oq rang uchun qiyosni (qor, bo'r, qogoz), jahl, yolg'on kabi ma'nolarda keladi.

weiß wie Alabaster (Kreide, Schnee) [2] – sutdek oppoq, qordek oppoq

sich (bis) zur Weißglut bringen – jahl otiga minmoq, jahli chiqmoq

aus schwarz weiß machen wollen – cho'pchak aytmoq, yolg'on gapirmoq

O'zbek xalqi uchun oq rang omonlik, totuvlik, ijobiy voqealar bilan xarakterlanadi. Ushbu rang komponenti bo'lgan frazeologizmlar o'zbek tilida talaygina. Jumladan,

oq yo'l – jo'nab ketish oldidan yaxshi safar uchun ishlatiladigan ibora

oq fотиha bermoq – biron bir o'zbek qizi keli bo'lib ketish oldidan oladigan duo

oq ko'ngil – tabiatan mehribon, har doim yaxshilikni o'ylaydigan odamlar uchun ishlatiladigan ibora

oq qorani tanimoq – yaxshi va yomon odamlarni bir-biridan ajratmoq.

Lekin oq rang har doim ham xalqimiz uchun ijobiy xarakterga ega rang hisoblanmaydi. Xususan respublikamizning turli hududlarida azalar achun har xil rangdagi (qora, oq, ko'k) kiyimlardan foydalanishadi. Demak oq rangdagi kiyim ham azadorlik uchun ishlatilar ekan. Bundan tashqari kafanning rangi ham oq, ba'zi hollarda bu rang o'lim belgisini bildirishi mumkin. Noqobil farzanddan kechishni xalqimiz oq qilish deb nomlaydi. Otasidan kechgan, uning umriga zomin bo'lgan, yoki otasi farzandidan kechgan bo'lsa bunday kishilar oqpadar deb nomlanadi.

Qizil – nemis tilida „rot“ ushbu rang bilan kelgan frazeologizmlarni nemis tilida ko'p uchratishimiz mumkin. Bu rangdagi frazeologizmlar uyat, jahl, qizil rangga xoslik, qon kabi ma'nolarni anglatadi.

rot anlaufen, vor Scham rot werden [2: 41-48]– uyatdan yuzi qizarmoq

rot wie eine Rosa – atirguldek qizil, o'zbek tilida loladek qizil

roter Saft, rote Tinte – qon

nur noch rot sehen – jahli chiqmoq, asabiy bo'lmoq

Qizil rang tabiatda tez anglanadigan ranglardan biridir. Shuning uchun ham ogohlantirish chiroqlari, svetafor chiroqlarining to'xtash belgisi ham qizil rangdadir. Tarixan qizil rang quyosh, urush, zo'rvonlik va muhabbatning belgisi bo'lgan. O'zbek tilida qizil rang tomirimizdan oqadigan qonning ramzidir. Mamlakatimiz bayrog'idagi ikki qizil chiziq ham aynan shuni bildiradi.

Rang	ijobiy		salbiy	
	Nemis tilida	O'zbek tilida	Nemis tilida	O'zbek tilida
qora		+	+	+
oq	+	+	+	+
qizil	+	+	+	+

Biz yuqorida tahlil qilgan rang komponentiga ega bo'lgan frazeologizmlarning o'zbek tiliga ekvivalenti bilan berilgan holda va oddiy izoh birikma holda ham berilganligini ko'rishimiz mumkin. Yana bir frazeologizmga bir rang o'rniga boshqa rang bilan berilganligini (blaues Blut – oqsuyak)

ko'rishimiz mumkin. Biz tahlil qilgan uch xil rangdagi frazeologizmlarning faqat qora rangda nemis tilida ijobiy frazeologizm uchramadi. Qolgan barcha ranglarda ikkala tilde ham salbiy ham ijobiy xususiyatlar namoyon bo'ldi.

ADABIYOTLAR

- Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin, Schmidt, 1998.
- Czyczek J. Phraseologie der Farben. Phraseologisches Wörterbuch. Deutsch-Polnisch, Polnisch-Deutsch. Berlin, Frank&Timme, 2017.
- Doliyeva L. Fransuz frazeologiyasida rang va ruhiyat oppozitsiyasi // Xorijiy filologiya, №4, 2020. 129-136-B.
- Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen, Niemeyer, 1997.
- Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.
- Imyaminova Sh.S. Nemis tili frazeologiyasi. Toshkent, Mumtoz so'z, 2011.
- Koller W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft. Heidelberg, Quelle&Meyer, 1992.
- Krohn K. Hand und Fuß: eine kontrastive Analyse von Phraseologismen in Deutschen und Schwedischen. Göteberg, Acta Universitatis Gothoburgensis, 1994.
- Ma'rufov Z.M. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 1981.
- Palm Ch. Phraseologie. Eine Einführung. 2.Aufl. Tübingen, Narr, 1997.
- Umarxo'jayev M., Nazarov K. Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at. Toshkent, O'qituvchi, 1994.
- Wills W. Übersetzungswissenschaft. Probleme und Methoden. Stuttgart, Klett, 1977.